

*Murodullayeva Jumagul, NamDU magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “Lakuna” atamasi va uning fanga kirib kelishi va bu hususda tilshunos olimlarning nazariy qarashlari tahlil qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** *Lingvistika, lacuna, termin, kognitiv birlik, lisoniy olam.*

**Аннотация:** В данной статье анализируется термин «лакуна» и его вхождение в науку, а также теоретические взгляды лингвистов на этот счет.

**Ключевые слова:** *Языкознание, лакуна, термин, когнитивная единица, языковой мир.*

**Abstract:** *This article analyzes the term "Lacuna" and its entry into the science, as well as the theoretical views of linguists in this regard.*

**Key words:** *Linguistics, lacuna, term, cognitive unit, linguistic world.*

“Lakuna” atamasi (“lacunae”, “Lücken”) ilk bor franko-kanadalik lingvistlar J.-P. Vine va J.Darbelnelarning tarjimashunoslik soxasida bildirgan qarashlarida uchraydi. Olimlar tarjima tilida tegishli muqobiliga ega boʻlmagan asliyat matnidagi soʻzlarni “boʻshliq” (lücken) deb atab, tarjimashunoslar eʼtiborini ushbu xodisaga jalb etishdi<sup>1</sup>. Tarjimashunoslar I.I.Revzin va V.Yu.Rozensveyglar “tushirib ketilgan joylarni toʻldirish” masalasida mulohaza yuritib, “bir madaniyat uchun odatiy boʻlgan vaziyatlarning boshqa madaniyatda kuzatilmalik” holatini “Vergleichende Stilistik des Französischen und Englischen”ning mualliflari ham alohida “lacune” deb ajratib koʻrsatganliklari haqida yozadilar<sup>2</sup>. Lingvistika fanining boshlangʻich bosqichlarida lakuna tushunchasidan foydalanish koʻlamini kengaytirgan olimlar asosan fransuz va rus tilidagi materiallarni qiyoslash bilan shugʻullangan

<sup>1</sup> Jean-’aul Vinay, Jean Darbelnet. Com’arative stylistics of French and English. A methodology for translation. Translated and edited by Juan C. Sager M.-J. Hamel. John Benjamins ‘ublishing Com’any Amsterdam / ‘hiladel’hia, 1995. r. 65.

<sup>2</sup> Revzin I.I., Rozentsveyg V.Yu. Osnovq obo’ego i mashinnogo perevoda. Moskva: Izdatelg’stvo «Vqsshaya shkola», 1964. s.184.

tadqiqotchilar hisoblanadi. Masalan, V.G.Gak “tilning leksik tizimidagi tushirib qoldirilgan qismlar, soʻzlarning yetishmasligi”ni lakunalar deb atagan<sup>3</sup>. V.L.Muravyov esa “maʼlum tilning lisoniy meʼyorida oʻrnashmagan tushunchalar”ni ifodalovchi oʻzga tildan kirib kelgan soʻzlar va muhim soʻz birikmalarini lakunalar sirasiga kiritgan<sup>4</sup>. Xorijiy tilshunoslik ilmi vakillaridan lakuna va unga teng boʻlgan tushunchalarni (void, semantic void, blank space, gap, lacuna, random holes in patterns, Lücke) K.Xeyl, Ch.Xokket, M.Shattluort singari tilshunoslar ishlatishgan. Ushbu tushunchalardan asosan lingvistik va kulturologik nuqtai nazardan qiyoslanayotgan tillar va madaniyatlar orasidagi farqlarni ifodalash uchun foydalanilgan. Oʻzbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlarda, garchi leksik lakuna atama sifatida ishlatilmagan boʻlsa-da, uning taʼrifiga mos keluvchi va xususiyatlariga ishora qiluvchi nazariy fikrlar keltiriladi. Xususan, Sh.Safarov “madaniyatda mavjud boʻlgan kognitiv birliklarning baʼzilari lisoniy voqelanish jarayonidan chetda qolishi, yaʼni lisoniy nom (shakl) olmasdan qolishi ham ehtimoldan xoli emasligi”ni taʼkidlab, bunga oʻzbek tilida lisoniy nomlangan “rostgoʻy” konseptining rus va ingliz tillaridagi muqobillari yoʻqligini misol keltiradi<sup>5</sup>. Hozirgi davrda ularning murakkab hamda koʻp oʻlchovli xodisa ekanligini hisobga olib, lakunarlik tushunchasi va lakunalarni turli nuqtai nazarlardan va turli ilmiy yoʻnalishlarda, jumladan, falsafiy, kulturologik, tilshunoslik, etnopsixolingvistik, lingvomadaniy va tarjimashunoslikda koʻrib chiqilmoqda.

Inson olamni ikki koʻrinishda: fenomenologik (narsa va hodisalarni aslidek) va lisoniy (narsa va hodisalarni soʻzlar ifodasida) qabul qiladi. Soʻz ortida, hoh u ovozli hoh grafik shaklda boʻlsin, madaniy olamning predmeti yoki hodisasi obrazi turadi. Madaniyat olami ham, uning inson ongidagi inʼikosi ham, yaʼni tushunchalar va soʻzlar olami, konseptual (kognitiv, mantiqiy) va lisoniy olam manzaralarini hosil qiladi. Kognitiv olam manzarasi – bu “inson yoki xalqning kognitiv ongi tomonidan

---

<sup>3</sup> Gak V.G. Sravnitelgʻnaya tipologiya frantsuzskogo i russkogo yazqkov. - L.: Prosveoʻenie. Leningr. otd-nie, 1977. – s. 261.

<sup>4</sup> Muravgʻev V.L. Leksicheskie lakunq (na materiale leksiki frantsuzskogo i russkogo yazqkov) / V. L. Muravgʻev. – Vladimir, 1975. – s. 6.

<sup>5</sup> Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzah: Sangzor, 2006. 73 b.

shakllantirilgan borliqning mental obrazi va ham borliqning hissiy organlardagi to'g'ridan-to'g'ri empirik, ham fikrlash jarayonidagi borliqning ongli refleksiv aksidir”<sup>6</sup>. Tabiiyki, konseptual olam manzarasi lisoniy olam manzarasidan ko'ra serqirraliroqdir, chunki birinchisining yaratilishida fikrlashning turli tiplari, jumladan noverbal tiplar ham ishtirok etadi. Lisoniy olam manzarasi hisobida esa faqat verbal fikrlash mavjud bo'lib, biz aynan tilni tahlil qilish maqsadida bu bilan cheklanamiz. Lekin, shuni ham ta'kidlash lozimki, lisoniy olam manzarasi konseptual olam manzarasisiz, yoki aksincha, ikkinchisi birinchisisiz mavjud bo'lolmaydi, sababi lisoniy olam manzarasi shaxsning tildan foydalanish jarayonida orttirgan borliq haqidagi ma'lum bilimini aks ettirib, mantiqiy olam manzarasini to'ldirib beradi.

F.de Sossyur tomonidan ochilgan belgilovchi va belgilanuvchi antinomiyasi (dixotomiyasi) lakunalarning vujudga kelishiga ob'ektiv asos bo'lib xizmat qiladi. Lisoniy belgi tushuncha (belgilanuvchi) hamda akustik obraz (belgilovchi)lardan tashkil topadi. Lisoniy belgi ixtiyoriydir, ya'ni akustik obraz va g'oya o'rtasida ichki munosabatlar mavjud emas. O'z-o'zidan, ma'lum bir g'oya turlicha tovushlar to'plami bilan ifodalanishi mumkin hamda bu turli tillarning mavjudligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, agar belgilanuvchining o'z belgilovchisi bo'lmasa unda g'oya ifodalanmay qolishi ham mumkin. Ushbu holatda lisoniy belgi shakllanmaydi va belgilanuvchi boshqa belgilarga “singib” ketadi, masalan bunda okkazional so'z birikmalari “...” belgilanuvchisi uchun belgilovchi bo'lib xizmat qiladi. Bu qoida shu bilan izohlanadiki, Sossyurga ko'ra, belgilovchi motivlashmagan, “ya'ni, aslida hech qanday tabiiy bog'liqligi yo'q belgilanuvchiga nisbatan erkindir”<sup>7</sup>. Bundan tashqari, belgilovchining motivlashmaganligi natijasida lisoniy belgi o'zgaruvchanlik singari xususiyat kasb etib, bu xususiyat belgilovchi va belgilanuvchi o'rtasidagi munosabatning siljib turishiga olib keladi. F. de Sossyur tomonidan keltirilgan misolga e'tibor qaratsak, “o'ldirmoq” ma'nosiga ega *pesage* klassik lotin so'zi og'zaki lotin tilida “cho'ktirmoq” ma'nosiga o'zgarib, bunda

<sup>6</sup> Popova Z.D., Sternin I.A. Kognitivnaya lingvistika.M.: ACT: Vostok-Zapad, 2007. — s. 52.

<sup>7</sup> Sossyur F. de. Kurs obo'ey lingvistiki. Yekaterinburg: Izdatelg'stvo Uralg'skogo universiteta, 1999. — s. 69.

o'zining dastlabki belgilovchisini saqlab qolgan. Xuddi shuni singari, ayrim so'zlarning yo'qolib ketgan ma'nolari yoki boshqa so'zlarga o'zlashib ketadi, yoki o'z belgilovchilarisiz qoladi. Sodda qilib aytganda esa, belgilovchilarsiz qolgan belgilanuvchilar lakunalar deb qabul qilinadi.

Lakunarlikning falsafiy asoslari M.Fuko, J.Derrida, Yu.Kristeva, V.P.Gritsenko, T.Yu.Danilchenko va boshqalarning ishlarida o'rganilgan. Masalan, M.Fuko lakunani diskursdagi yo'qlik hodisasi sifatida o'rganib, "o'zaro chatishib ketgan ob'ektlarning lakunar ko'pligi" atamasidan foydalanadi va "nutqdagi "tushirib qoldirilgan qismlar" yoki bo'shliqlarni "yashirin ma'nolar" bilan chalkashtirmaslik kerak" ekanligi to'g'risida xulosa qiladi<sup>8</sup>. Falsafiy-madaniy tomondan lakunalarga "olam manzarasini yaratish jarayonida vujudga keladigan dunyoqarashdagi farqlar" deya ta'rif beriladi. Til, ong, madaniyatdagi lakunalar "bo'sh joylar" hisoblanadi va bo'sh joylar deyilganda, tadqiqotchilar "belgilar materiyasi, ma'no va qadriyatlarining ayrim mavjud bo'lmagan doiralari"ni nazarda tutishadi. T.Yu.Danilchenkoning fikricha, lakunalar orqali ma'lum madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari namoyon bo'ladi, shu sababli lakunalarni nafaqat bo'shliq, balki tafovutlar sifatida ham o'rganish maqsadga muvofiqdir<sup>9</sup>. Kulturologik yondashuv zamirida esa aynan madaniyatlar orasidagi farqlar va milliy madaniyatning o'ziga xosligi lakunalarning paydo bo'lishiga asos bo'lib yotadi. Madaniyatshunoslikda lakunalar "til va madaniyatlar o'rtasidagi tafovut, aloqasizlikni keltirib chiqaruvchi madaniyatlararo muloqot jarayonida vujudga keladigan holatlar", "tushunmovchilik, kelishmovchilik, muammolilik manbalari" sifatida o'rganiladi. Lakuna va lakunarlikning murakkab tabiati ushbu hodisalarni yanada kompleks tarzda o'rganishni taqozo etadi. Tadqiqotchilarning fikricha, lakunalarga bo'lgan kulturologik yondashuvni lingvokognitiv hamda germeneytik yondashuvlar bilan to'ldirish mumkin. Dashidorjievanning fikricha, muloqotning kognitiv jihatlarini yuzaga chiqaruvchi lingvokognitiv yondashuv lakunalar interpretatsiyasida metodologik vosita vazifasini o'tashi mumkin. Ushbu yondashuv

---

<sup>8</sup> Fuko M. Arxeologiya znaniya. – Kiev: Nika-TSentr, 1996. – s. 208.

<sup>9</sup> Danilg'chenko T.Yu. Lakunq: filosofskiy i teoretiko-kulg'turnqy aspektq. Avtoref. diss. doktora filoz. nauk. Krasnodar: KGUKI. Spetsialg'nostg' 24.00.01 – «Teoriya i istoriya kulg'turq». – 2010. s. 48.

tarafdorlarining fikricha, muloqot ishtirokchilari kognitiv olamlarining o'zaro mos tushmasligi tufayli madaniyatlararo muloqot jarayonida muammolar kelib chiqadi. Albatta, lakuna tadqiqotida asosiy yo'nalish sifatida lingvistik yo'nalish hisoblanadi, sababi aynan shu o'zanda lakuna ilk bor ilmiy fenomen maqomini olgan. Lingvistik yo'nalish kontekstida lakuna turli darajalarda ko'rib chiqiladi. Tilshunoslikda lakunalar, eng avvalo, turfa xil lisoniy muvofiqsizliklar bilan izohlanib, ular turli tilshunoslar tomonidan turlicha nomlangan. Tilning leksik tarkibida mavjud lakunalarni ko'p holatda ekvivalentsiz leksikaga tenglashadi (L.S.Barxudarov, A.O.Ivanov, Z.D.Popova, I.A.Sternin va boshq.). Ilmiy adabiyotlarda muqobili yo'q leksika yana "ekzotizmlar", "alienizmlar" (V.P.Berkov, S.Vlaxov, S. Florin, V.S.Vinogradov), "varvarizmlar" (A.A.Reformatskiy), "etnoeydemalar" yoki "ksenonimlar" (L.A.Sheyman, N.M.Varich, V.V.Kabakchi, A.G.Antipov, X.Shreder), "qorong'u joylar" (R.A.Budagov), "tirnok milklari" (G.Gachev), "nutq modellaridagi tasodifiy tushib qolgan joylar" ("random holes in patterns") (Ch.Xokket) singari atamalar bilan uchrab turadi. Lakunalarni lisoniy muvofiqsizliklar shakli sifatida lingvistik rakursda ko'rib chiqish masalasi tarjima xaqidagi fan tadqiqoti maydoniga borib taqaladi.<sup>10</sup> Tillararo muvofiqlikning yo'qligi timsoli sifatida lakuna kontrastiv tilshunoslikda ham an'anaviy, tor ma'noda, bir tildagi so'zning ikkinchisida muqobil variant topilmasligi vaziyatida o'rganiladi. Masalan, I.A.Sterninning mulohaza qilishicha, tillarning kontrastiv tasviri orqali "lakunarlik, ya'ni ma'lum birlikning bir tilda mavjud bo'la turib boshqa tilda yo'q bo'lishi holatlari aniqlanadi. Shu tariqa, lakuna bir tilni boshqasiga nisbatan olganda, tillararo muvofiqlikning yo'qligi bilan izohlanadi"<sup>11</sup>.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ревзин И.И., Розенцвейг В.Ю. Основы общего и машинного перевода. Москва: Издательство «Высшая школа», 1964.
2. Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. - Л.: Просвещение. Ленингр. отд-ние, 1977.

---

<sup>10</sup> N.Dosbayeva. O'zbek nasriy adabiyotidan ingliz tiliga tarjimalarning lingvomadaniy tahlili f.f.d. DSc. diss.avtoreferati. Toshkent 2021 ...

<sup>11</sup> Sternin I.A. Kontrastivnaya lingvistika. Problemi teorii i metodiki issledovaniya. – M.: AST: Vostok – Zapad, 2007. – s. 31.

3. Муравьев В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков) / В. Л. Муравьев. – Владимир, 1975.
4. Dosbayeva. Ўзбек насрий адабиётидан инглиз тилига таржималарнинг лингвомаданий таҳлили f.f.d. DSc. diss.avtoreferati. Toshkent 2021.
5. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.